

**O‘QUVCHILARDA IJODIY FIKRLASH, MUAMMOLARNI HAL ETA OLIISH VA BILIMLARINI RIVOJLANTIRISH PSIXOLOGIYASI**

*Navbaxor Nazarmuhamedova Saparboyevna*

*Toshkent shahar Yunusobod tumani 4 mavze*

*302 - maktab pedagog psixolog*

*Tel: 977256145*

**Annotatsiya:** Maqolada o‘quvchilarning ijodiy fikrlashlari, muammolarni hal eta olish va bilimlarini rivojlantirish psixologiyasiga oid tushunchalar keltirilgan

**Kalit so‘zlar:** O‘quvchilarda ijodiy fikrlash, muammoli vaziyatlardan chiqish olish va bilimlarini rivojlantirishda zamonaviy yondoshuvlarning o‘rni, O‘quvchilarda ijodiy fikrlashga o‘rgatishda TRIZ texnologiyasidan foydalanish

Bugungi kunda ilmiy, uslubiy adabiyotlarda «ijod», «ijodkorlik» kabi atamalarni uchratib qolmoqdamiz. Bu atamalarning adabiyotlar sahifalarida paydo bo‘lganligi bejiz emas.

«**Ijod**» so‘zining lug‘aviy ma‘nosi: «yaratish», «yangilikni kashf etish» so‘zlariga monand keladi.

**Ijodkorlik**-faoliyatning turli holatlarida paydo bo‘ladi. Qiziqish ilhom, intilish va boshqalar ijodkorlikning inson ongida eng oliy tarzda paydo bo‘lishidan, namoyon bo‘lishigacha jarayonini o‘z ichiga oladi. Shaxsda faoliyat ehtiyoji faoliyatda yangi ilgari maqsad qilib qo‘yilmagan, hal etuvchi vosita bo‘lib hisoblanmagan intilishdir.

**Kreativlik** (lot., ing. “kreate ” – yaratish, “kreative ” yaratuvchi, ijodkor) – shaxsning yangi g‘oyalarni ishlab chiqarishga tayyorligi tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati ma‘nosini ifodalaydi.

**Ijodkorlik**- sifat jihatdan yangi, moddiy va ma‘naviy boyliklar yaratuvchi inson faoliyati jarayoni. Ijodkorlik o‘zida insonning mehnatda namoyon bo‘lgan

qobiliyatini ifodalaydi. Ob’ektiv olam qonuniyatlarini bilish asosida xilma-xil ijtimoiy ehtiyojlarini qanoatlantiradigan yangi haqiqatni yaratadiganday mehnat ijod bo‘lishi mumkin. Ijod turlari bunyodkorlik faoliyati bilan belgilanadi: ixtirochi, tashkilotchi, mehnati ilmiy va badiiy mehnat va boshqalar. Ijodiy faoliyat uchun imkoniyatlar ijtimoiy munosabatlarga bog‘liq. Bugungi kunda mustaqillik tufayli amalga oshirilayotgan ta’lim islohotlari o‘z ishiga ijodiy yondashuvchi, fan , texnika, san’at, ishlab chiqarishning jadal rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shadigan yuksak malakali kadrlar tayyorlashga bog‘liq. SHunga ko‘ra, jamiyat taraqqiyoti talabalaridan kelib chiqqan holda har bir o‘quvchini ijodkorlik ruhida tarbiyalash muhim va zarurdir.

Psixolog olim N.D.Levitov ijodiy faoliyatni quyidagi mezonlar asosida vujudga kelishini isbotladi<sup>1</sup>:

- tafakkurning mustaqilligi;
- o‘quv materialining o‘zlashtirilishi, tezligi va mustahkamligi;
- standart bo‘lmagan vazifalarni hal qilishda, aqliy chamalashning (topqirlikning) tezligi;
- o‘rganib chiqilayotgan hodisalarning mohiyatiga chuqur kirib borish orqali muhim bo‘lmagan narsadan muhimini ajrata bilish.

O‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo‘lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi.

Ular quyidagilardan iborat :

1. O‘quvchilar ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalari.

2. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi.

---

1

3. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg‘ulotlar evristik muammoli vaziyatlar yaratish.

4. O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv. Bu shart-sharoitlar quyidagicha amalga oshadi :

O‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ular egallashi lozim bo‘lgan bilim, malaka, ko‘nikmalarga quyidagi talablar qo‘yiladi.

- dastur materiallarni qay darajada o‘zlashtirganligi ;
- mavzularga doir asosiy tushuncha va qoidalarni o‘zlashtirganligi;
- tanlagan mavzu bo‘yicha topshiriqlarni mustaqil bajara olishi ;
- o‘rganilayotgan mavzulardagi asosiy muammolarni anglab olishi ;
- topshiriqlarni bajarishda o‘quv ashyolari va texnika vositalar, axborot texnologiyasidan foydalana olishi ;
- o‘z qobiliyatini namoyon etishi va uni rivojlantira olishi ;
- mavzu bo‘yicha o‘z oldiga erishiladigan maqsadlarni qo‘ya olishi, rejalar tuzishi va natijalarni baholay olishi ;
- mavzularni o‘rganishda o‘z fikrini dalillay olishi;
- o‘z variantini tavsiya eta olishi va hokazolar.

Mazkur talablar o‘qituvchiga o‘quvchilarning o‘qishga bo‘lgan qiziqishlari, ularning o‘quv-biluv faoliyati, individual moyilliklarini bilish imkoniyati paydo bo‘ladi va bu borada o‘quv jarayoni tuzilmasini belgilab olishga yordam beradi.

Evristik faoliyatni texnologiyalashtirish bolalarning ijodiy qobiliyati qanday bo‘lsa shu qadar zaruriy va qonuniy jarayondir.

Yagona o‘quv mashg‘uloti, o‘quv kursi bo‘yicha tizimli mashg‘ulotlar, evristik yo‘naltirilgan faoliyat asosida sodir bo‘ladi<sup>2</sup>.

Evristik vaziyatlar yaratish va rivojlantirish bo‘yicha texnologik harakat-bolalar ijodkorligi natijalarini ta‘minlash yo‘lidir. Quyida evristik vaziyatlar

tayyorlash va o‘tkazish bo‘yicha o‘qituvchilar uchun texnologik yo‘l-yo‘riqlar haqida fikr yuritamiz:

1. Izlanuvchi vaziyatning asosiy ta’limiy ob’ektini (narsa, tushuncha, hodisa, jarayon, an’ana, buyum va boshqalar). Bunda ob’ekt va bolalar uchun qiziqarli bo‘lgan muammoni aniqlash; bolalarga ularning o‘rganilayotgan ob’ekt bilan shaxsiy ichki aloqasini topishga yordam berish, ular uchun shaxsan ahamiyatli muammolarni qanday tayyorlash bo‘yicha o‘ylashga yo‘naltiradi. Buning uchun shaxsiy tajriba va o‘quvchilarning qo‘yiladigan ta’limiy natijalari taxminlanadi.

2. Bolalarga yechimi noma’lum bo‘lgan muammo yoki topshiriq beriladi. Ushbu topshiriqni amalga oshirish sinfda ta’limiy ko‘tarinkilik hamda o‘quvchilar topshiriqni bajarish orqali o‘zlarining faolligini namoyon etgandagina samarali bo‘ladi.

Topshiriqning ta’riflanishi muammoni jamoa bo‘lib muhokama qilishning natijasi bo‘lishi mumkin. Bolalar tomonidan ta’riflangan topshiriq shunchaki qiziqarli emas, balki o‘qituvchi uchun yangilik bo‘lsagina maqsadga erishilgan bo‘ladi.

3. O‘quvchining o‘zi paydo bo‘lgan yoki yaratilgan vaziyat (topshiriq)ni shaxsan hal etishga imkoniyat yaratish. Evristik vaziyatning asosiy bosqichi sanaladi. Bunda har qanday ta’lim natijasidan ijod belgisini aniqlash lozim.

4. o‘quvchilarning ta’limiy ijod namunalarining namoyish etish: she’rlar, rivoyatlar, topshiriqlar, ta’riflar, ramzlar, rasmlar, loyihalar va shu kabilarni jamoaga muhokama etib, ko‘rgazmalar tashkil etish, o‘zaro yozma taqrizlar yozdirish, ma’ruzalar bilan chiqishlar qilish.

5. Ta’limiy ijod namunalari namoyish etilgandan keyin rasmlar, rivoyatlar, ta’riflar, olimlarning fikrlari, darsliklaridagi ma’lumotlar, shaxsiy bilim va tasavvurlari bilan asoslay olish.

6. Bolalarning ijod namunalarini qiyoslash, solishtirish, tasniflash bo‘yicha faoliyatini tashkil etish. O‘quvchilar tomonidan o‘z qarashlari yoki ijod

namunalarini aniqlash hollari yuz bersa, ularga o‘z nuqtai nazarlarining o‘zgarish sabablarini tushunishlarida ko‘maklashiladi. Ta’limiy vaziyatlarning rivojlanishi ta’minlanadi.

7. O‘quvchilarning bilishga oid qo‘llanilgan usullarni, paydo bo‘lgan muammo va uni yechish yo‘llarini tushunishi bo‘yicha fikr yuritish, tahlil etish. O‘quvchilarga individual tarzda erishgan natijalarini aniqlashda ko‘maklashishi. Jamoa bo‘lib yaratilgan ta’limiy natijalarini aniqlash.

Izlanuvchi ta’limiy vaziyatlarning davomiyligi o‘zgarib turadi, ular o‘zaro aloqadagi vaziyatlar zanjiri ham bo‘lishi mumkin. Izlanuvchi vaziyatlar tamoyillarida izlanuvchi ta’limni tashkil etishdarajasi:

Boshlang‘ich ta’lim dasturlari, o‘qitilayotgan o‘quv predmetlarining tahliliy natijalari shuni ko‘rsatadiki, 1-4- sinf o‘quvchilarida ijodiy faoliyatni shakllantirishni bir necha bosqichda amalga oshirish uchun imkoniyat yaratilgan, jumladan, darsda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatiga yo‘naltirilgan o‘quv materiallarini to‘g‘ridan -to‘g‘ri taqdim qilinishi belgilanmagan bo‘lsa-da, mahoratli o‘qituvchi o‘z faoliyatini o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirishni turli metodlar asosida amalga oshirishi mumkin. Og‘zaki so‘rash; yozma ishlar o‘tkazish; amaliy ishlarni bajarish; turli didaktik o‘yinlar o‘tkazish orqali o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini shakllantirish mumkin. Masalan, boshlang‘ich sinflarning «O‘qish» darsida bolalarning ijodiy faoliyatini shakllantirish uchun o‘quv materiallarida berilgan tushunchalar konkret – induktiv metod vositasida o‘rganilishi va o‘qituvchining mohirona darsni tashkil qilishi natijasida ularda ijodiy faollikning oshishiga zamin yaratilishi mumkin. Bunda o‘quvchilar avval o‘qituvchining topshiriqlarini bajargan holda o‘rganilayotgan tushunchaning umumiy xossalarini aniqlaydilar, so‘ngra o‘qituvchi rahbarligida ta’rifni mustaqil holda tuzishga harakat qiladilar. Yangi tushuncha kiritishning bu yo‘li ayniqsa quyi sinflarda o‘z samarasini beradi.

O‘quvchilarining yosh xususiyati bilim saviyasidan kelib chiqqan holda muammoli vaziyatlar yaratishning quyidagi usullaridan foydalanish mumkin:

1. Ona tili darsligida berilgan mavzularni qiyoslab o‘rgatish orqali muammoli vaziyat yaratish, chunonchi o‘rganilayotgan har bir mavzu o‘quvchilardan tovushlar, so‘zlar va gaplarni qiyoslashni shu asosda umumlashmalar hosil qilishni talab etadi. Bu ham o‘z-o‘zidan ravshanki, muammoli vaziyatni yuzaga keltiradi. O‘quvchilarda “Nima uchun?” degan savolga javob izlashga ehtiyoj tug‘iladi. Masalan “unli va undosh tovushlar” mavzusi o‘rganilayotganda o‘quvchi avval unli va undosh tovushlarni to‘g‘ri nomlashni, keyin qiyoslashni, unli va undoshlar ishtirokida so‘zlar, so‘zlardan esa gaplar hosil qilishni, ularning bir-biridan farqlarini aniqlashni talab etadi.

2. Muammoli savollar berish orqali muammoli vaziyat yaratish.

O‘qituvchi dars mashg‘ulotini muammoli savolni o‘rtaga tashlash bilan boshlaydi:

1. Unli va undosh tovushlarni alohida aytib ko‘ring.

Ularni talaffuz qilishda qanday farqni sezayapsiz?

2. Oltita unli va harf ishtirok etgan so‘z yozing. Ulardagi unlini boshqa unli bilan almashtirib ko‘ring, qanday o‘zgarishlarni sezayapsiz?

3. Undosh tovushlarning talaffuz etib ko‘ring. SHovqin ovozdan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida, faqat shovqindan hosil bo‘lgan undoshlarni alohida yozing.

Agar topshiriqlarni bajarish muayyan qiyinchilik tug‘dirsagina, namuna ko‘rsatadi.

4. Ramziy tasvirlar orqali muammoli vaziyatlar yaratish.

Muammoli vaziyat yaratishning bu usulida ramziy tasvirlardan foydalaniladi. Masalan, “O‘zbekiston qovunlari” rasmlari va nomini berib, mavzuda matn yaratish topshirilishi mumkin.

5. Muammoli vaziyat yaoratishda til hodisalarini guruhlash, ajratish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, so‘zlarni muayyan uyalarga birlashtirib, umumiy ma’noli so‘zning xususiy ma’nosini yoki xususiy ma’noli so‘zlarning umumiy ma’nosini topishini talab qilish muammoli vaziyat yaratish imkonini

beradi. Masalan, o‘quv qurollari, mevalar, sabzavotlar, daraxtlar va gullarning o‘nlab hatto yuzlab uyadoshlari borki, o‘qituvchi umumiy ma’noli so‘zni o‘quvchi hukmiga havola etadi va qolgan so‘zlarni topishni o‘quvchilarga topshiradi.

1. Sabzavotlar: sabzi, ...
2. O‘quv qurollari: kitob, ... va hokazolar.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ta’limning bilishga oid qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan motivatsion-qiziqarli tomonlariga ham ko‘proq e’tibor berilishi lozim.

## 2. O‘quvchilarda ijodiy qobiliyatni shakllantirish yo‘llari

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda ilmiy asoslangan ta’lim metodlaridan foydalanish lozim.

Kichik maktab yoshidagi o‘quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini shakllantirishda munozara, bahs, suhbatlar, fantaziya o‘yinlari, modellashtirish, badiiy texnik ijodkorlik, kichik kashfiyotlar yaratish, insholar yozish, solnomalar tuzish, ishbop o‘yinlar kabi metodlar eng samarali bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinfnig o‘qish, ona tili darslarida bolalarni ijodga undashning yo‘llari va imkoniyatlari juda ko‘p. Ertak qahramonlarini harakatini o‘zgartirib bolalarni yangi ertak to‘qishga, tanish ertak syujeti asosida yangi ertak yaratishga, ya’ni o‘sha qahramonlar bilan boshqa ertak to‘qishga o‘rgatish, xotira bilan bog‘liq so‘zlar va hodisilarni eslashga, sinfda hikoyachi rolini bajarishga, o‘ylab topilgan narsani aytib berishga, gap, matn tuzishga odatlantirish mumkin.

Boshlang‘ich 4-sinf o‘qish darslarida badiiy matn ustida ishlayotganda bolalarga matn ustida reja tuzish va o‘qishlarini reja asosida qayta hikoyalashga o‘rgatish bolalarning ijodiy faoliyat ko‘rsatishlariga olib keladi.

Ona tilidan o‘rganiladigan har bir mavzu, xar bir orfogramma xarakteriga muvofiq mustaqil ishlar uyushtiriladi. Ona tili darslarida o‘tkaziladigan mustaqil ishlarsh quyidagi talablar qo‘yiladi: a) mustaqil ishlar pedagogik va psixologak tomondap asoslangan bo‘lishi, o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlariga, bilimiga moc bo‘lishi, o‘quvchilarga tilni o‘zlashtiriii qiziqtirishi lozim; b)



o‘qituvchi tomonidan berilgan topshiriq bolalarning o‘quv materialini faol idrok etishini ta‘minlashi zarur; v) mustaqil ish xayotiy bo‘lishi, o‘rganilgan nazariy bilimlarni amaliy tatbiq etishning vositasi bo‘lmog‘i kerak.

O‘quvchilar o‘qituvchi rahbarligida tovushni bo‘g‘inga, bo‘g‘inlarni so‘zga birlashtiradilar. Gapni so‘zga, so‘zni bo‘g‘inga, bo‘g‘inni tovushlarga ajratadilar. O‘quvchilarga tahlil qilishni o‘rgatish maqsadida ularning diqqati aniq narsalarga tortiladi. O‘qituvchi rasmlarni o‘rnatib, (rasmda uzum, anor, shaftoli, limon, o‘rik va boshqa mevalar ifodalangan) o‘quvchilarga bunday ish beradi: rasmni yaxshilab kuzating. Unda nimalar tasvirlangan? Ularning nomini eslang. Shirin va nordon mevalarning nomini bildiradigai so‘zlarni guruhlariga ajrating. O‘ylang, yana qaysi mevalar shirin va nordon bo‘ladi. Bunday topshiriqlarni bajarishda o‘quvchilar chog‘ishtirish usulidan foydalanadilar. Topshiriq bajarilgach, tahlil uchun "olma" so‘zi ajratildi. Shu so‘z bo‘g‘inlarga bo‘linadi. "Olma" so‘zining ikkinchi bo‘g‘inidagi "m", "a" tovushlarining artikulyasiyasini kuzatish topshiriladi (o‘quvchilar bu tovushlarni ayta turib, partadosh o‘rtoqlarining og‘ziga qaraydi). Suhbat paytida o‘quvchilar "m" tovushini talaffuz qilganda lablarning yumilishi, "a" tovushini aytganda og‘izni ochilganini o‘rganib oladilar. Shunga o‘xshash ishlarni bajarish natijasida o‘quvchilar til dalillarini kuzatish, jamoada ishlay olish malakalarini egallaydi. Bu ishlar o‘quvchilarni bundan keyingi yanada murakkabroq vazifalarni bajarishga tayyorlaydi.

3-sinfda “Gapda so‘zlarning bog‘lanishi” mavzusini o‘rganishda quyidagi ijodiy topshiriqni bajarish ishi o‘tkaziladi.

1. Gapni so‘zlarga ajrating, har bir so‘zning so‘rog‘ini aniqlang. Qor yog‘di.
2. Nuqtalar o‘rniga tegishli so‘zni qo‘yib, gapni kengaytirib yozing. Qor yog‘di. (oq, ko‘k, qizil, oppoq) - .. Oppoq qor yog‘di.
3. Gapni bugun, qalin so‘zdari yordamida kengaytirib yozing. Bugun oppoq, qalin qor yog‘di.

O‘quvchilarning aqliy faoliyatini rivojlantiruvchi mashqlardan unumli foydalanish dars samaradorligining oshishiga ham yordam beradi. Masalan:



Aqlni charxlash mashqlari. Matematika darsi misolida

Ushbu tavsiya etayotgan mashg‘ulot jamlanmasida aqliy amallarni bajarish uchun mo‘ljallangan mashqlar keltirilgan.

Mashg‘ulot uchun zarur jihozlar: raqamlar va harflar bilan ishlashga mo‘ljallangan mashqlar to‘plami.

O‘qituvchi o‘quvchilardan davra bo‘lib o‘tirib olishlarini so‘raydi. So‘ngra birinchi bosqichda o‘quvchilar sonlar bilan ishlash mashqlarini bajaradilar.

O‘qituvchi topshiriqlarni bera boshlaydi va o‘quvchilar og‘zaki tarzda ovoz chiqarmasdan topshiriqlarni fikran bajarib boshlaydilar. Mashqlar bajarib bo‘lingach har bir mashq qanchalik qiyinchilik tug‘dirgani va kimda qanday o‘zgarish yuz berganligi muhokama etiladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, boshlang‘ich ta’lim jarayonida o‘quvchilarning ijodiy faoliyatini rivojlantirish uchun turli shart-sharoitlarni yaratish muhim ahamiyat kasb etadi. Buning uchun ta’lim talablarini aniqlash va shu talablar asosida uning ustuvor qo‘nalishlarini izlanuvchi ta’lim, muammoli vaziyatlar yaratish va ta’limga texnologik yondashuv asosida tashkil etilishi o‘quvchilar ijodiy faoliyatini rivojlantirishning samaradorligiga zamin tayyorlaydi.

Boshlang‘ich ta’limda o‘quvchilarning ijodiy faoliyatlarini rivojlantirishda qiziqarli va muammoli, mantiqiy topshiriq ta’lim metodlaridan va o‘yindan foydalanish ham maqsadga muvofiq.

Bunda ta’lim jarayoni unumdorligi oshadi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayoni shakllanadi, o‘quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqish oshadi, bilimlarni mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalari shakllanadi. Bunday topshiriqlar o‘quvchilar qobiliyati, imkoniyati va ehtiyojlarini hisobga olgan holda amalga oshirilishi lozim.

Mantiqiy o‘yinlar, boshqotirmalar bolalarda tabiatdan berilgan aqliy kuchlar sezgilar, ruhiy holatlar, biluvchanlik va faoliyat erkinligini rivojlantirishga yordam berib, bolalarda mustaqil fikr yuritib, oldiga maqsad qo‘ya olish hamda ko‘zlagan maqsadiga yetishish qobiliyatini shakllantirishga imkon beradi.

Mantiqiy boshqotirmalar o‘quvchi ijodiy qobiliyatining rivojlanishi uchun zarur sharoit bo‘lib, uning jarayonida shaxs hayotiy tajribaga ega bo‘ladi, atrof-olamni idrok etadi, bilimlarni o‘zlashtiradi, malaka va ko‘nikma hosil qiladi.

Ijodkorlik faoliyatini rivojlantirishda ijodiy qobiliyatni shakllantirishga, ilmiy-ijodiy izlanishlarga yo‘llaydigan, mantiqiy boshqotirmalarga oid ilmiy faoliyatni tashkil etish, shakl va metodlaridan foydalanish o‘z samarasini albatta beradi.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Karimova V.M. Sunnatova R. va boshqalar. Mustaqil fikrlash. Akademik litseylar va kasb- hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma.- T.: SHarq, 2000- 112 b.

2. Kulyutkin YU.N. Tvorcheskoy myshleniye v professionalnoy deyatelnosti uchetya // Voprosy psixologii –M. : 2004 - № 2 – 21 -30.

3. Ochilov M. Yangi pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. Qarshi.: Nasaf, 200. – 80b.

4. Izmailova E. I. "Fikrlash va eslashni o'rganish (TRIZ texnologiyasi)" Moskva, ARKTI nashriyoti, 2010 y.

5. Utemov V. V., Zinovkina M. M., Gorev P. M. Ijodkorlik pedagogikasi: ilmiy ijodkorlikning amaliy kursi: darslik. - Kirov: ANOO "Hududlararo CITO", 2013. - 212 p.

6. Sidorchuk T. A. "Syujetli rasm asosida bolalarning ijodiy hikoyalarini chizish" Nashriyotchi: M.: ARKTI Nashr qilingan yil: 2010